**GENERAL GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF PISKENT DISTRICT****Zilolahon S. Nasirullayeva***Master student**Faculty of Geography and Natural Resources**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Archaeological excavations, natural resources, archeological excavations, temperate climate, gravel layers.

**Abstract:** This article is about the general geographical description of Piskent district, gives general concepts and interesting facts.

**Received:****Accepted:****Published:****PISKENT TUMANIGA UMUMIY GEOGRAFIK TAVSIF****Zilolahon S. Nasirullayeva***Magistrant**Geografiya Va tabiiy resurslar fakulteti**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitet***МАҚОЛА HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Arxeologik qazish,tabiiy resurslar,arxeologik qazilmalari,iqlimi mo'tadil,shag`al qatlamlari.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola,Piskent tumaniga umumiy geografik tavsifi haqida bo'lib,umiyl tushunchalar va qiziqarli faktlar keltirilgan.

**ОБЩАЯ ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПИСКЕНТСКОГО РАЙОНА****Зилолахон С. Насибуллаева***Магистрант**Факультет географии и природных ресурсов**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека***О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** археологические раскопки, природные ресурсы, археологические раскопки, умеренный климат, гравийные пласти.

**Аннотация:** Данная статья посвящена общему географическому описанию Пискентского района, представлены общие понятия и интересные факты.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida qarori qabul qilingan.


Respublikamizdagи tumanlar soni 156 tadan ortiq bo`lib, shulardan biri o'zining tabiatи, so`lim go'shalari bilan ajralib turuvchi Piskent tumanidir. O`zbekiston Respublikasining har bir hududida turizmni rivojlantirih to'g'risida bir nechta qarorlar qabul qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, tuman maydoni 0,79 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Piskent tumani shimol va shimoli-sharqdan Ohangaron va O'rta Chirchiq, g'arbdan Oqqo`rg`on, janubi-g'arbdan Bo'ka tumanlari, janubdan esa Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati bilan chegaradosh. Piskent tumani Yer maydoni g'arbdan sharqqa tomon balandlashib boradi. Sharqiy qismida Qurama tog'lari, adirlar, cho'l, yaylovlar joylashgan. Relyefi biroz past-baland, eski daryo o'zanlari, jar va jilg'alardan iborat. Hududdagi asosiy sug'oriladigan yerlar g'arbiy qismida joylashgan.

## ASOSIY QISM

### Piskent tumanining o'rganilish tarixi

Respublikamizning har bir qarichi takrorlanmas xususiyatlarga va manzaralarga ega. Ana shunday hududlardan biri Toshkent viloyatining o'ziga xos tabiatи va so`lim go'shalari bilan ajralib turuvchi Piskent tumanidir. Piskent tumanining geografik o'rnini va arxeologik qazilmalarini bir qator professorlar, olimlar o'rgangan. Bular injener gidrogeologlar R. S. Subbotin va P. L. Nachayevich, arxeolog A. A. Potapov, M. V. Voevodskiy, V. D. Jukov, I. N., Lutskevichlar, T. G. Obolduyev, Y.F.Buryakov, professor M.E. Masson va boshqalar. Sh.M.Sharipov Piskent tumani landshaftlarini o'rgangan. Aynan shu tuman diyorida o'sib ulg'ayib. bugungi kunda fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent A.Mamatqulov Piskent tumani haqida tarixiy, arxeologik, geografik ma'lumolarni o'rganib, jamlab risolalar yozgan.

Tumanning joylashgan geografik o'rni: Ma'lumotlarga ko'ra, tuman maydoni 0,79 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Piskent tumani shimol va shimoli-sharqdan Ohangaron va O'rta Chirchiq, g'arbdan Oqqo`rg'on, janubi-g'arbdan Bo'ka tumanlari, janubdan esa Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati bilan chegaradosh. Piskent tumanining kosmosdan ko'rinishi aks ettirilgan. Tabiiy geografik jihatdan tuman hududi Qurama tog tizmalarining etaklarida va Ohangaron daryosining chap sohilida Chirchiq-Ohangaron vodiysi boshlanadigan yerda joylashgan.



Yer maydoni g'arbdan sharqqa tomon balandlashib boradi. Sharqiy qismida Qurama tog'lari, adirlar, cho'l, yaylovlar joylashgan. Relyefi biroz past- baland, eski daryo o'zanlari, jar va jilg'alardan iborat. Hududdagi asosiy sug'oriladigan yerlar g'arbiy qismida joylashgan. Yerlari bo'z tuproqli bo'lib, pastqam joylarda o'tloqli, botqoq-o'tloqli, allyuvial tuproqlardan iborat. Tumanning shimoliy chegarasi bo'ylab Toshkent suv ombori joylashgan[1.7]. Tumanning shimoliy chegarasi bo'ylab Toshkent suv ombori ("Toshkent dengizi") joylashgan [1.7]. Ohangaron daryosi o'z suvlarini Tyanshan tog'ining Chotqol va Qurama tog tizmalaridan oqib keluvchi soy suvlarining qo'shilishidan oladi. Daryoning Sirdaryoga qo'shilishigacha bo'lган uzunligi 236 km, havzasining maydoni esa 7710 kv. km. ni tashkil etadi. Hududning o'rtacha balandligi 300-2500 metrni tashkil etadi (2-rasm). IQLIMI Iqlimi mo'tadil issiq va quruqdir. Piskent tumanida bog`lar va ckinzorlar ko'p. Ba'zi yillarda kech bahorda havo haroratining keskin pasayib ketishi 9 tufayli qishloq xo`jaligi mahsulotlari zarar ko`radi. Tumandagi yillik o'rtacha harorat +13,50C ni tashkil etsa, iyul oyining o'rtacha harorati +270C, eng yuqori harorat esa +420C ni tashkil etadi. Biroq so'nggi yillarda yillik o'rtacha haroratning birmuncha ko'tarilayotgani aniqlangan. Yanvar oyining o'rtacha harorati -1.00C ni, ayrim yillarda eng past harorat -27oC ga tushib ketgan. Yog'in miqdori g'arbdan sharqqa tomon ortib boradi. Yillik o'rtacha yog'in miqdori 350 mm ni tashkil etadi.

Yerosti va yerusti suvlari: Piskent tumanida yerosti suvlari mavjud. Tuman markazi sanalgan 10 Piskent shahri zaminida 40-100 metr chuqurlikda, tuman markazidan 3-4 km shimolda o qib o'tuvchi Ohangaron daryosi sohilida 50-80 metr chuqurlikda Kultepa va Said qishlog'i joylashgan hududlarda 10-50 metr chuqurlikda sifatli chuchuk zaxiralari bor. Injener gidrogeologlar R.S.Subbotin va P.L.Nachayevichning ta'kidlashlaricha, 850-1000 metr chuqurlidagi mineral suv tarkibi va shifobaxshligi jihatidan Toshkent mineral suvi kabitdir[1.8]. Mineral suv tarqalish zonasini janubdan Tuyabo'g'iz suv ombori, Piskent shahrining shimoliy qismi, Kerovchi qishlig'i va Olmaliq shahri tomon cho'zilgan, Piskent tumani hududi zamini har xil soz tuproq va boshqa tog` jinslaridn tarkib topgan. Ohangaron daryosi sohili, Kerovchi, Kultepa. Said qishloqlari va ularning atroflarida qumli mayda va yirik shag'al qatlamlari mavjud bo'lib, qalinligi 20-30 metrdan 80-100 metrgachani tashkil etadi. Yemqo'rg'on. Bo'g'ziron ota, Uchtepa, Pushti Mahmud kabi hududlarda soz tuproq qalinligi 40-50 metrni tashkil etadi. Mingtepada esa biroz kamroq bo'lib, 25-40 metrga boradi[1.9].

Arxeologiyasi: Piskentning sharqiy qismida Pushti Mahmud tepaligi joylashgan. Uning ikkinchi nomi "Bola pushta" deb ham ataladi. Aytishlaricha, bu yerda afsonaviy Mahmud podshoning qal'asi bo'lган va to'rt tomoni katta jarliklar bilan ajralib turgan. Qal'aning sharqiy tomonida mudofaa devoir bo'lib, unda qo'shimcha istehkom va kuzatish punkti joylashgan. Bu yerda 1906-yili arxeologik qazish ishlari olib borish natijasida xum parchalari, xum idishda esa

vaqt o'tishi bilan chirib ulgurgan tariq doni qoldiqlari hamda turli davrlarga oid bir necha tangalar topilgan. 1921-yilda M.E.Masson rahbarligida bu yerda arxeologik qazish ishlari olib borilganida XII asrga tegishli yaxshi holatda saqlangan yashil rangdagi chiroq, bir necha shisha idish qoldiqlari, "simob ko'zachalar", spool parchalari, qozon va XI-XII asrlarga oid uy ro'zg'or buyumlari topilgan. Tepalikning g'arbiy qismida vaqt o'tishi bilan ancha nurab qolgan paxsa devor qoldiqlari uchraydi[2.10].



Piskent tumani

Piskent tumani - Toshkent viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Shimoliy va shim.-sharqsan Ohangaron va O'rta Chirchiq, g'arbdan Oqqo'rg'on, jan.-g'arbdan Bo'ka tumanlari, jan.dan Tojikiston Respubli-kasining Sug'd viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 0,79 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 86,3 ming kishi (2003). Piskent tumanida 1 shahar (Piskent), 6 qishloq fuqarolari yig'ini (Do'ngqo'rg'on, Kerovchi, Murotali, Koriz, Oqtepa, Sayd) bor. Tuman markazi — Piskent shahri

Tabiat. Tuman hududi Qurama tog' tizmalarining etaklarida va Ohangaron daryosining chap sohilida, ChirchiqOhangaron vodiysi boshlanadigan yerda joylashgan. Yer usti sharqdan g'arbga tomon qiya. O'rtacha balandligi 300–2500 m. Sharqiy qismi Qurama tog'lari, adirlar, cho'l, yaylovlar bilan band. Relyeffi bir oz past-baland, eski dare o'zanlari, jar va jilg'alar bilan parchalangan. Tumanning g'arbiy qismida sug'oriladigan yerlar joylashgan. Tuproklari, asosan, tipik bo'z tuproqlar, pastqam joylarda o'tloqi, botqoq-o'tloqi, allyu-vial tuproklar. Tumanning chekka sharqida to'q bo'z tuproqlar va qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan bo'lib, bu yerdidan yaylov sifatida foydala-niladi. Kurama tog'idan Ohangaron daryosi oqib tu-shadi, tog' soyolaridan Qizota, Kovuldi, Olmaliqsoy, Parganda, Qoraqiyosoy oqib o'tadi. Anhor, Bo'ka, Sho'r, O'rtaariq, Bo'rjar singari qad. ka-nallar, Shimoliy Toshkent kanali bor. Shimoliy chegarasi bo'ylab Toshkent suv ombori („Toshkent dengizi“) joylashgan. Iqlimi mo'tadil issiq, quruq. Yillik o'rtacha temperatura

13,5°; iyulning o‘rtacha temperaturasi 27°, eng yuqori temperatura 41,G, yanvarniki —1,0°, eng past temperatura —27,2°. Vegetatsiya davri 210—220 kun. Yillik yog‘in 350 mm. Yovvoyi o‘simpliklardan tekisliklarda qamish, dashtda shuvoq-sho‘ra, tog‘ oldi yerlarida bo‘tako‘z, dare va soylarning vodiylarida archa, do‘lana, zarang, olcha, olma, chetan (ryabina) va boshqa usadi. Yovvoyi hayvonlardan daryo qayirlarida bo‘ri, chiyabo‘ri, yumronqoziq, quyon, to‘qay mushugi, o‘rdak, g‘oz, qirgovul, toglarda kaklik, bedana, mayna, loyxo‘rak, suvilonlar, ondatra yashaydi. Tumanning sharqiy qismida foydali qazilmalardan mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, molibden va boshqa nodir metall rudalari, flyuorit, ohaktosh, shag‘al, kum va boshqa turli xil qurilish materiallari olinadi.

Aholisi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 109,2 kishi. Shaharliklar 31,4 ming kishi, qishloq aholisi 54,9 ming kishi (2003).

Xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Sanoat, transport, aloqa, kurilish korxonalarini bor. Shir-kat va dehqon-fermer xo‘jaliklari paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Tumanda 66 davlat, 1243 no-davlat korxonasi, 1 qo‘shma korxona, 10 aksiyadorlik jamiyati, 2 jamoa, 8 shir-kat xo‘jaligi, 970 fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadi. (2003).

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tuman aholisi asosan Chumqor va Malguzar (Morguzar) tog‘lari etaklaridagi buлоqlar atrofida hamda Sangzor daryosi va uning irmoqlari atrofida joylashgan. Buloqlarning suv sarfi qanchalik katta bo‘lsa, uning atrofida paydo bo‘lgan aholi punkti ham shunchalik yirik bo‘ladi. Misol uchun tumandagi eng yirik buлоq “Novqa ota” bulog‘i, ushbu buлоq atrofida joylashgan Novqa qishlog‘ nafaqat tuman miqyosida balki respublika miqyosidagi yirik qishloqlardan biri hisoblanadi. “O’smat ota” bulog‘i tumandagi sersuvligi jihatdan ikkinchi o‘rinda turuvchi buлоq. Ushbu buлоq atrofida tuman markazi joylashgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO”YHATI

1. Mamatqulov A. Piskent tarixidan lavhalar. I qism – T.: Fan, 2010.
2. Rakhmonkulovich, N. K. (2018). Muhammad ibraheem Al-Geyoushi's contribution on the studying of scientific heritage of Al-Hakim Al-Tirmidhi. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 433-440.
3. Mamatqulov A. Piskent tarixidan lavhalar. II qism – T.: Mumtoz so`z, 2012.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 9-qism, 2005.

5. Toshkent viloyati tarixi va taraqqiyot istiqbollari-T.: Ma`naviyat 2014
6. Nematov, O. THE PILGRIMAGE OF KHAZRAT ZAYNULOBIDIN. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 83.
7. Gudalov, M., & Gozieva, M. (2020, December). Development Of Tourism In Zaamin National Nature Park By The Cluster Method. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 111-114).
8. Yunusova, G. D. (2022). Specific Aspects Of The Speech Act In Korean. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 4056-4059.